

ROMANLARDA MAISHIY, IJTIMOIIY VA QAHRAMON ICHKI KONFLIKTINING PSIXOLOGIK TASVIRI

Dildora ALIQULOVA*

Annotatsiya: Maqolada roman janrida konfliktning badiiy asar syujeti va obrazlar tizimidagi o'rnini tahlil qilinadi. Konflikt faqat voqealar rivoji uchun emas, balki qahramon xarakterining shakllanishi va psixologik talqinini chuqurlashtirish uchun ham muhim komponent hisoblanadi. Ayniqsa, maishiy va ijtimoiy romanlarda oila, muhabbat, jamiyat ichidagi qarama-qarshiliklar turli darajada namoyon bo'lib, syujet dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada "O'tkan kunlar" va F.Dyushen romanlari tahlil qilinib, Sharq va G'arb adabiy an'analari o'rtasidagi bog'liqlik, obrazlar tizimining o'ziga xosligi yoritiladi. A.Qodiriy va F.Dyushen ijodida realistlik va psixologik tasvir an'analari uyg'unlashgan bo'lib, ularning qahramonlari murakkab ruhiy kechinmalari, ijtimoiy ta'sirlar va badiiy konsepsiyalar bilan boyitilgan. Ushbu jihatlar roman janrining epik va dramatik xususiyatlarini yanada kuchaytiradi.

Kalit So'zlar: Janr, Syujet, Kompozitsiya, Tasvir, Konflikt.

Psychological Image of Domestic, Social and Heroic Internal Conflict in Novels

Abstract: This article analyzes the role of conflict in the plot and character development within the novel genre. Conflict is not only a key component in shaping the storyline but also plays a crucial role in deepening the psychological portrayal of characters. In domestic and social novels, conflicts related to family, love, and societal contradictions emerge at different levels, directly influencing the dynamics of the plot. Additionally, the article examines "Bygone days" and "Qamar" novels, highlighting the connection between Eastern and Western literary traditions and the distinctiveness of character systems. The works of A. Qodiriy and F. Dyushen demonstrate a synthesis of realistic and psychological narrative traditions, where their protagonists are shaped by complex emotional experiences, social influences, and artistic concepts. These aspects further enhance the epic and dramatic qualities of the novel genre.

Key Words: Genre, Plot, Composition, Depiction, Conflict.

Kirish

Adabiyot inson ruhiyatining murakkab jihatlarini o'rganish va ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Roman janrida esa qahramon ichki olami, ijtimoiy muhit va maishiy hayot o'zaro chambarchas bog'langan holda tasvirlanadi. Ayniqsa, badiiy asarlardagi psixologik konflikt – qahramon ichki kechinmalari, uning tashqi dunyo bilan ziddiyatlari va shaxsiy qarorlar qabul qilish jarayoni roman poetikasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, "Romanlarda maishiy, ijtimoiy va qahramon ichki konfliktining psixologik tasviri" mavzusi zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, qahramon ruhiy dunyosini chuqur anglash imkonini beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi – roman janridagi psixologik tasvir usullarini o'rganish, qahramon ichki dunyosining shakllanishida ijtimoiy va maishiy omillarning o'rnini tahlil qilish hamda adiblarning psixologik konfliktini ifodalash usullarini ilmiy asosda tadqiq etishdan iborat. Bundan tashqari, romandagi qahramon ichki kechinmalarining jamiyat bilan o'zaro bog'liqligi va ularning xarakter rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: komparativ tahlil, psixologik tahlil, tarixiy-adabiy yondashuv. Mazkur metodlar asosida roman janrida qahramon ichki konfliktining badiiy aks ettirilish jarayoni chuqur tadqiq qilinadi va mualliflarning psixologik tasvir usullari tahlil etiladi.

Adabiyotshunos tadqiqotchilar tomonidan turli janrdagi romanlar syujeti va obrazlar tahlili ko'p bora o'rganilishi hech kimga sir emas. Albatta, ushbu ish yozuvchining yangi qirralarini kashf qilinishiga keng eshik ochadi. Adabiyotshunos olim va munaqqid Suvon Meliyev (2020: 130) "Biz adabiyotlar, badiiy asarlar va ulardagi qahramonlar orasidagi yaqinliklar haqida gapirar ekanmiz, ularda aytilgan fikrlar, holat va ziddiyatlar bilan bir qatorda ruhiy yaqinlikka ham ko'proq e'tibor qaratishimiz lozim o'xshaydi. Ruhiy yaqinlik, ruhshunoslikni qiyosiy adabiyotshunoslik markaziga olib chiqish zarurdir balki", deya

* PhD., Turon Universiteti, G'arb tillari kafedresi, Qarshi, O'zbekiston, e-mail: aliqulovadildora92@gmail.com

ta'kidlaydi. Biz ham ustozning ushbu fikrlaridan ilhomlanib romanlarda maishiy, ijtimoiy va qahramon ichki konfliktining psixologik tasviriy ifodasini ochib berishga harakat qilamiz.

Adabiyot nazariyasida syujet tushunchasi asar tarkibiy qismlaridan biri sifatida muhim o'rin tutadi. Syujet, asosan, epik va dramatik asarlarga xos bo'lib, voqealarning mantiqiy ketma-ketligi, qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar rivoji hamda asar g'oyasining ochib berilishida muhim rol o'ynaydi.

XX asrning yirik nazariyotchilaridan biri G.N. Pospelov ham syujet epik hamda dramatik asarlarga xos deb hisoblaydi. Shu bilan birga, u voqeaband lirika namunalarida ham syujet borligi, faqat bundagi syujet o'ta qisqa, hissiy to'yintirilgan va botinida albatta meditativlik (ya'ni lirik subyekt kechinmalari) mavjud bo'lishini ta'kidlaydi. Shuningdek, bunday syujetlar real emas, majoziy yoki fantastik mazmunga ega bo'lishi zarur deb uqtiradi. Mazkur shartlar bajarilgan taqdirda asarda voqelik emas, balki shoirning ijodiy ongi ijodiy tipiklashtirilgan, demak, asar lirika hodisasi o'laroq namoyon bo'ladi (Pospelov, 1978: 110).

G.N. Pospelov boshliq ijodiy guruh tayyorlagan darslikda ham syujet epik-dramatik asarlardagi makon va zamonda kechuvchi voqealar oqimi sifatida tavsiflanadi (Pospelov, 1988: 197).

Buni amerikalik nazariyotchi olimlar R.Uellek va O. Uorren yanada aniq ifodalaydilar: «Pyesa, ertak yoki romanning rivoya strukturasi an'anaviy ravishda "syujet" deb ataladi va, chamasi, boshqa termin izlashga asos yo'q (Uellek va boshqalar, 1978: 233). Ular shuningdek "syujet"ni keng tushunish kerakligini ta'kidlab o'tadilar. Shunga o'xshash filrlardan, V.Y. Xalizev ham syujetni «adabiy asarda tasvirlangan voqealar silsilasi, ya'ni personajlarning makon va zamon o'zgarishlarida, bir-biri bilan almashinuvchi holat va sharoitlarda kechuvchi hayoti» sifatida ta'riflaydi. Unga ko'ra, «syujet epik, dramatik va liro-epik janrlarning uyushtiruvchi asosi»dir (Xalizev, 2002: 249). Ushbu olimlarning fikrlaridan shuni xulosa qilish mumkinki syujet an'anaviy – voqealar tizimi o'laroq tushunilish kerak.

O'zbek adabiyotshunosligida ham syujetga an'anaviy yondashuv, ya'ni uni voqealar ketma-ketligi sifatida tushunish ustunlik qiladi. Adabiyotshunos olimlarimizdan Izzat Sultonov syujet «asarda hikoya qilinayotgan voqea», «asar mazmuniga asos bo'lgan kichik yoki katta voqea degan fikrni ilgari suradi (Sulton, 1986: 179).

Adabiyotshunoslik lug'atida konflikt terminiga quidagicha ta'rif beriladi. KONFLIKT (lot. conflictus – to'qnashuv) – personajlarning asar syujetida badiiy ifodasini topadigan o'zaro to'qnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasida yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar (Quronov va boshqalar, 2010: 143). Roman janrida obrazlar xarakterining shakllanishi, rivoji, syujetning keskin, qiziqarli bo'lishi va muhim badiiy qiymat kasb etishi uchun quvvat yadrosi vazifasini bajaradigan komponent konfliktidir. Odatda psixologik tasvir ham ko'pincha ichki va tashqi konflikt doirasida chuqurroq, ko'lamdorroq tarzda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, romanning qaysi tipga mansublanishiga qarab undagi konflikt xakteri ham belgilanadi. Masalan, realistik romanlarda konflikt real ijtimoiy kuchlar yoki real shaxslar o'rtasida, falsafiy romanlarda dunyoqarashlar, falsafalar o'rtasida, psixologik romanlarda psixologik holat, vaziyat yoki botiniy psixologik qutblar o'rtasida, ma'rifiy romanlarda ma'rifat va jaholat kuchlari o'rtasida sodir bo'ladi va hokoza.

Biz maqolamizda tahlil qilmoqchi bo'lgan maishiy va qisman ijtimoiy tipdagi romanlarda konfliktning bir yo'la uchta tipi ko'zga tashlanadi. Bunday romanlarda birlamchi va eng yetakchi konflikt shakli sifatida maishiy konfliktni olish maqsadga muvofiq. Ota-ona va farzand, qaynona va kelin, kelin va kuyov qarindoshlari, kuyov va kelin qarindoshlari, kundosh va kundosh, hatto kelin va kuyov o'rtasida ro'y beradigan konfliktlar maishiy romanlarda to'ydan keyingi turmush tasvirida faol uchraydi. Bu tip romanlarda oshiq, ma'shuq, ag'yor uchligi ikki yosh to'yiga qadar bir raqib obrazini, to'ydan keyin esa boshqa raqibni maydonga chiqaradi. Albatta, bu uchlik, avvalo, oilani tashkil etishda faol ishtirok

etsa, keyinchalik oila barpo bo'lganidan keyin ijtimoiy hayot maydonida ham ko'rina boshlaydi. Bunda mansabdor bo'lish, qarindoshlar orttirish, urush va ijtimoiy keskin vaziyatlar, sud-huquq masalalari asos bo'lishi mumkin. Oila, ijtimoiy hayot, qahramon shaxsiyati va botinidagi hodisa va holatlar murakkablashgani sari bunda kechadigan konfliktning tabiati murakkablashib, psixologik tasviri quyushlab boradi.

Konflikt atamasi odatda epik va dramatik asarlarga nisbatan ishlatiladi. Chunki ular voqeaband syujetga ega bo'lib, tasviriy-dinamik san'at turlari sanaladi, ya'ni "ularda rivojlanib boruvchi voqealar silsilasi – makon va zamonda kechuvchi harakat qalamga olinadi (Baxtin, 2015: 217)". Bu xususiyat roman janrining barcha tiplariga xos bo'lib, ularning aksariyat tiplarida voqealar silsilasi o'sib, rivojlanib boradi. Asar voqealarining silsilaviy tarzda o'sib, rivojlanib yoki konkret harakatga aylanishini ta'minlaydigan narsa makon va zamon bo'lib hisoblanadi. Makon va zamon tasavvurini uyg'otmaydigan voqea yoki unda kechadigan konflikt harakatsiz, turg'un va jonsiz bo'ladi. Umuman, badiiy asarda qahramon xatti-harakatini ham, syujet harakati va dinamikasini ham, ichki va tashqi psixologik holatlar kontrastini ham ta'minlab turuvchi o'zak-yadro makon bilan zamon yoki ularning badiiy uyg'unligidir.

Hayotiy misol vositasida ko'radigan bo'lsak, ikki bizga tanish yoki notanish odam urishib qolgani (konflikti) haqidagi voqea (syujet) bizga kimdir tomonidan (muallif, roviy, hikoyachi) aytib beriladigan bo'lsa (badiiy bayon) biz eshituvchi (o'quvchi)ni qiziqitiradigan birlamchi savol "qayerda?" va "qachon?" degan savol bo'ladi. Demak, syujet dinamikasi va uni tashkil etuvchi konfliktlar nainki badiiy tekstda, xuddi shuningdek, hayotiy hodisalar va ularning tabiiy holatda ijtimoiy kommunikatsiyalashuvida ham makon va zamon tasviri birinchi o'rinda turar ekan. Shuning bilan birgalikda, makon va zamonning konflikt tasviridagi ahamiyatini ko'rsatuvchi yana bir narsa, bu psixologik tasvirdir. Psixologik tasvir badiiy asar uchun qanchalik zarur bo'lsa, hayotiy voqeani hikoyalashda ham shu qadarlik muhimdir.

Biz tahlilga tortayotgan "O'tkan kunlar", "Qamar" romanlarida ham bu jihatlar yetakchi mavqega ega.

Badiiy kontekstga ko'ra, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani zamon tasviri bilan boshlanib, tasvir obyektiv shundan keyingina makon tasvirini aks ettirishga o'tadi. Asardan parcha: 1264-hijriy, dalv oyining o'n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitaladir (Qodiriy, 2012: 6).

F.Dyushenning "Qamar" romani dialog bilan boshlanadi. Asos sifatida ushbu asar boshidagi jumlanı keltiramiz:

— Oyi, oyi, mehmon keldi, mehmon!

Bu so'zni Zarduda eshitib, o'zining hujrasidan shoshilib chiqdi. Uning orqasidan hujraning eshigi ochiq qoldi. Zarduda hujrasining eshigiga qaragan ikkinchi bir katta eshik ham shu vaqt sekingina ochildi. Undan sariq rangli baroq mushuk dumini xuddi qilib chiqib keldi. Lekin mushuk chiqqan katta eshik qattiq sharaq-lab yopildi.

— Voy xudo! ... Bamun xonim, kelar ekansiz, nima-ga ilgariroq xabar bermadingiz?

Shu gaplardan keyin Zarduda uyoq-buyoqqa qarab qichqira boshladi.

— Xo'y Qamar! Qaerdasan? Tezroq murabbo bilan qahva tayyorla! (Dyushen, 1997:

9).

Dastlab makon tasvirlanadi, voqealar kechadigan joy manzarasi nisbatan to'liqroq chiziladi. Shundan keyingina asar voqealari ro'y berayotgan vaqt haqida tasavvur paydo bo'ladi. Har ikkala romandagi makon va zamon tasvirida maishiy, ijtimoiy va shaxs bilan bog'liq unsurlar o'zaro qorishib ketgan. Mana shu qorishqlik asarlarning keyingi voqealari rivojida maydonga keladigan konflikt turlari hamda psixologik tasvirga asos bo'lib xizmat qilgan. "Qamar" romani dialog bilan boshlanganiga qaramasdan, undagi dastlabki urg'u makon tasviriga berilgan. Dialogning boshida Qamarlar xonadoniga fransuz oqsuyagi Braun

xonimning kelishi xabari beriladi, ya'ni dastlab darak gap keladi. Demak, kimningdir qayergadir kelishi haqidagi xabarning o'zidanoq badiiy makonning mavhum tasviri anglashiladi. Shundan so'nggina Qamarning onasi Zarduda hujrasi, navbati bilan boshqa makonlar tasviriga o'tiladi: "Bu so'zni Zarduda eshitib o'zining hujrasidan shoshilib chiqdi. Uning orqasidan hujraning eshigi ochiq qoldi. Zarduda hujrasining eshigiga qaragan ikkinchi bir katta eshik ham shu vaqt sekingina ochildi. Undan sariq rangli baroq mushuk dumini xoda qilib chiqib keldi. Lekin mushuk chiqqan katta eshik qattiq sharaqlab yopildi" (Dyushen, 1997: 9).

A.Qodiriy va F.Dyushen romanlarini umumiy kuzatishdan ma'lum bo'lyaptiki, birinchi muallif asarni boshlashda zamon tasviriga, ikkinchi muallif esa joy makon tasviriga asosiy urg'uni bergan. Buning natijasida asar voqealari kechadigan yetakchi syujet komponentini go'yoki oldindan belgilab, ko'rsatib qo'ygan. Natijada A.Qodiriy romani tarixiy, ijtimoiy, maishiy mavzularni jamlagan, milliy tarixga doir muammolar aks etgan keng planli asarga aylangan bo'lsa, F.Dyushen romanlari, asosan, maishiy muammolarni aks ettirgan maishiy asarga aylangan. Bundan kelib chiqadiki, asosan, maishiy muammolar talqin etilishi ko'zda tutiladigan romanlarda voqealar makon tasviri bilan, tarixiy, ijtimoiy, milliy mavzular talqin etilishi mo'ljallangan romanlarda esa zamon tasviri bilan boshlanar ekan. Haqiqatdan, M.Baxtin ta'kidlaganidek, oila, kundalik maishat, bir inson yoki oila maishiy turmushi tasvirlanadigan epik asarlarda zamon u qadar faol bo'lmasligi mumkin, chunki bunday asarlarda asosiy jamlash vazifasini makon, manzil, joy bajaradi. Aksincha, o'tkir milliy, ijtimoiy muammolar tasvirlangan asarlarda esa voqealar shiddati va to'g'ri chiziqli harakatini rivojlantirish vazifasi zamonga yuklanadi (Baxtin, 2015: 235). Konfliktlar va ularning psixologik tasviri ham xuddi shunga qarab xarakterlanadi.

Ammo shu joyda yana bir narsani ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq. A.Qodiriy bilan F.Dyushen romanlarini muqoyasaviy planda yonma-yon qo'yadigan bo'lsak, "O'tkan kunlar" va "Qamar" romanlariga nisbatan bir qatlam chuqurroq yoki bir bosh balandroq ekani ma'lum bo'ladi. Chunki A.Qodiriy romani maishiy muammolarning o'zi bilan chegaralanmaydi. Balki maishiy muammolar fonida o'tkir ijtimoiy, dardli milliy muammolarni aks ettirish asosiy maqsad bo'lib hisoblanadi. Agar A.Qodiriyning ham maqsadi F.Dyushen kabi sof maishiy muammolar bilan cheklanish bo'lganida, "O'tkan kunlar" romani Kumushning Marg'ilondan Toshkentga olib kinishi bilan yakunlangan bo'lar di. Ammo A.Qodiriyning asl maqsadi millatning "eng kirlik va qora" davrlari, "keying'i xon zamonlari" fonida tanazzulga yuz tutayotgan XX asr o'zbek jamiyatiga xos muammolarni romanlashtirish bo'lgani uchun "O'tkan kunlar" ko'lami mislsiz darajada kengaygan.

Bu haqda adabiyotshunos Bahodir Karimovning (2020) salmoqli kuzatishlari, ohorli fikrlari mavjud. Uning "Adabiy makon va zamon sharhi" nomli tadqiqotida "O'tkan kunlar" romanida zamonning o'ta noyob bir shakli istifoda etilgani haqida tahliliy fikrlarga duch kelamiz: "1264-inchi hijriya, dalv oyining 17-inchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...". Romanning ushbu muqaddimasiga har kim o'zicha ma'no beradi. Buni o'ziga xos bir "bismilloh", deya izohlaydi bir yozuvchi. Bundagi qish kuniga, quyosh botishiga, shom kirib, qorong'ulik tushayotganiga ramziy ma'no beradi yana bir ijodkor. Unisi ham, bunisi ham to'g'ridir. Ehtimol, boshqacha talqin ham kutilar.

Ammo biz o'sha jumladagi azonga e'tibor berdik, unga tavallud ayyomi, serjoziba qahramonlar tug'ilishida aytilgan ilohiy kalimalar, deya ma'no berdik. Shaytonlarni quvlash marosimi, deya tushundik. Azon – birinchi eshik ostonasi, dedik. Balki ushbu jumla o'zbek roman janrining yangilanayotganiga sado berilayotgandir.

Adabiyotshunos bir oz publitsistik pafosda talqin etgan bu masala, aslini olganimizda, roman poetikasi va unda konflikt psixologiyasining shakllanishi uchun juda muhim. Chunki maqolada "O'tkan kunlar"dagi makon va zamonning o'ziga xosligi, Sharq musulmon romanchiligiga oidligi, originalligi haqida gap ketmoqda. Tadqiqotchining fikriga ko'ra,

“O‘tkan kunlar” romani syujeti ikki musulmoncha amal azon va namoz orasiga sig‘dirilgan. Chunki hayot o‘zi o‘ta qisqa, adabiyotshunosning o‘zi e’tirof etib aytganidek, “hayot azon va namoz oralig‘idir”. B.Karimov ushbu tadqiqotini bir rivoyat asosida olib borib, “O‘tkan kunlar” romanidagi makon va zamon shu ikki musulmoncha vaqt ichida ekanini asoslashga harakat qilgan. Olimning keltirib o‘tishicha ushbu rivoyat shunday:

“Rivoyat: Nabira bobosiga: “Hayot nimadan iborat?” deb so‘radi.

Bobosi esa: “Bu – azoni va namoz orasidagi farq,” dedi.

Nabira hayron bo‘lib: “Bobojon, bu nimani anglatadi? Hayot shunday qisqa emasmi?”

Bobosi: “Ha, hayot juda qisqa, lekin sen azoni va namozning o‘rtasidagi farqni bilasanmi, o‘g‘lim?”

Albatta, bola bu murakkab tushunchani tushunmagan edi.

Azon – bu namozga chaqirishdir. Ya’ni, odam tug‘ilgan paytda qulog‘iga chaqirib qilib aytiladi, ammo o‘sha paytda namoz o‘qilmaydi. Namoz – bu azonsiz namozdir, ya’ni inson o‘lganda janoza namozi o‘qiladi, ammo azon aytilmaydi. Men shuni nazarda tutdim! (Karimov, 2019: 86). Bizning fikrimizcha ham, olimning bunday xulosalariga qo‘shilish mumkin. Inson umri musulmon dunyosida shu ikki amal ichida o‘tishi aniq. Abdulla Qodiriy esa islom ilmlarining bilimdoni bo‘lgan bir yozuvchi sifatida ushbu rivoyatni o‘z romani uchun asos qilib olgan bo‘lishi mumkin. Chunki romandagi zamonni bu tarzda belgilash, romandagi falsafiylik va psixologizmning ham yorqin namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. B.Karimovning romandagi makon va zamon haqidagi ushbu xulosasi yagona va o‘zgarmas xulosa emas, albatta. U shunchalik keng qamrovli romanki, bunday salmoqli talqin ham roman haqidagi o‘nlab fikrlardan bittasi bo‘lishi, roman yana o‘nlab tahlillarga imkon berishi mumkin. Bunday tahlillar muqoyasaviy planda olib borilsa, talqinning yanada yangi-yangi qirralari ochilib boraveradi, albatta.

Xulosa

“O‘tkan kunlar” romani obrazlari birinchidan, mukammal ishlanganligidan; ikkinchidan, o‘zaro ichki poetik silsilaviylikni hosil etishda aniq tizimga asoslanishi; uchinchidan, bu obrazlarning har bittasi chuqur psixologik talqin etilib, maishiy oila hamda muhabbat g‘oyaviy konsepsiyalari asosida badiiy tasvirlanganligi jihatidan o‘ziga xoslik kasb etadi. XX asrning 30-yillarida faol ijod pallasiga kirgan, qolaversa, Jazoirda uzoq vaqt yashagan F.Dyushenning kuzatishlari, real arab hayoti, real odamlar asosida shakllantirilgan roman obrazlari boshqa fransuz tarixchi va adiblari fikrlaridan ko‘ra ortiqroq qimmat kasb etadi. F.Dyushen romanlaridagi obrazlar tizimi ham umumiy jihatdan qaralganda, A.Qodiriy obrazlar tizimi bilan qator mushtarakliklarga ega. F.Dyushen bir tomondan qadim grek romanlaridagi obrazlarni tizimlash an‘anasiga rioya qilsa, boshqa tomondan yevropalik yozuvchi bo‘lganiga qaramasdan, u ham Sharq xalq romanik dostonlari, ertaklari, she’riy qissalari, mumtoz yozma dostonlari tizimini mustahkam o‘zlashtirgan, ijodiga tadbiiq etgan.

Bosh qahramon psixologiyasidagi dinamika, og‘ish, tanazzul, iztirob va quvonchli holatlar yozuvchi nuqtai nazari asosida asar mazmunini shakllantirib, kengaytirib, mukammallashtirib borar ekan, asardagi boshqa personajlarning unga ta’siri bo‘lgani holda, ayni vaqtda undan ta’sirlanishi, natijada o‘z fikr-qarashlari, faoliyatini yangilash, o‘zgartirishiga olib keladi.

XX asr boshlarida yaratilgan romanlar jahon epik tasvir an‘analarining barcha tamoyillarini to‘liq o‘zida mujassam eta olmagan. Bu davr adabiy jarayonida an‘anaviy epik struktura bilan realistik tasvir uslublari o‘zaro uyg‘unlashgan yoki muayyan darajada o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlangan. Masalan, biz tahlilga tortgan fransuz millatiga mansub, biroq Jazoirda yashagan Ferdinand Dyushen Yevropa adabiyotida shakllanayotgan yangi epik nasr tamoyillaridan ko‘ra, hayotiylik va realizmga asoslangan maishiy tasvir uslubini afzal ko‘rgan. Uning ijodida epik tasvirdan ko‘ra, kundalik turmush tafsilotlariga e’tibor qaratilgan.

Abdulla Qodiriy esa o'zbek va Sharq xalqlari nasr an'analarini davom ettirgan holda, asosan klassik adabiyotning dostonchilik, qissachilik va masnaviychilik yo'nalishlariga tayanib ish ko'rgan. Uning asarlarida an'anaviy epik poetika elementlari modernistik yo'nalishlar bilan uyg'unlashgan bo'lib, badiiy strukturaning o'ziga xos shakllanishi kuzatiladi. Shu bois, XX asr boshlaridagi romanlar epik adabiyot evolyutsiyasining o'tish bosqichiga xos xususiyatlarni namoyon etgan bo'lib, ularda klassik an'analar va yangi badiiy qarashlarning sintezlanishi sezilarli darajada namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

- Baxtin, Mixail Mixaylovich (2015), *Romanda zamon va xronotop shakllari*, Toshkent: Akademnashr.
- Dyushen, Ferdinand (1997), *"Qamar", "Tamilla"* (Z.Bashariy tarjimasi), Toshkent.
- Karimov, Bahodir (2020), *Adabiy makon va zamon sharhi / Abdulla Qodiriy fenomeni*, Toshkent: Info Capital Books.
- Meliyev, Suvon (2020), *Global talqin poetikasi*, Toshkent: Fan.
- Pospelov, Gennady (1978), *Tioriya literaturi*, Moskva: Visshaya shkola.
- Pospelov, Gennady (1988), *Vedeniy v literaturovedeniy*, Moskva: Visshaya shkola.
- Qodiriy, Abdulla (2012), *O'tgan kunlar*, Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyeva, M. (2010), *Adabiyotshunoslik lug'ati*, Toshkent: Akademnashr.
- Sulton, Izzat (1986), *Adabiyot nazariyasi*, Toshkent: O'qituvchi.
- Uellek, Rene, Oustin, Uorren (1978), *Tioriya literaturi*, Moskva: Progress.
- Xalizev, Valentin (2002), *Tioriya literaturi*, Moskva: Visshaya shkola.